

RAUF PARFI SHE'RIYATIDA MILLIY RUHIYAT TASVIRI

Minhojiddin Mirzajonovich HOJIMATOV
Filologiya fanlari (PhD) bo'yicha falsafa doktori
O'zbekiston milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

She'riyatda yuksak g'oyaviylik ham, go'zal badiiyat ham milliy ruhiyat tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Kuchli poetik mazmun o'tkir falsafiy mulohaza bilan uyg'unlashib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Maqolada O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfi she'riyatida milliy ruhiyat tasviri tadqiq qilinadi.

Tayanch so'zlar: milliy o'zlik, tuproq, ma'naviy tarbiya, yurt, qadriyat, milliy ruh, o'tmish, ona tili, uyg'onish, tafakkur, ifoda, adabiy hodisa.

ОБРАЗ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА В ПОЭЗИИ РАУФА ПАРФИ

Минхажидин Мирзаджонович ХОДЖИМАТОВ
Доктор философии по (PhD) филологическим наукам
Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В поэзии высокая идейность еще более ярче проявляется в ее прекрасной художественности и изображении национального духа. Сильное поэтическое содержание в сочетании с острыми философскими рассуждениями увеличивает воздействие произведения. В статье рассматривается изображение национального духа в поэзии Народного поэта Узбекистана Рауфа Парфи.

Ключевые слова: национальная идентичность, почва, духовное воспитание, страна, ценность, национальный дух, прошлое, родной язык, пробуждение, мышление, выражение, литературный феномен.

So'z shunday qudratga egaki, uning vositasida ko'ngil iztiroblari g'oyat inja va nozik san'atga aylanganidek, qalbdagi isyon quroldan otilgan o'qdek ta'sir qilishi, inson dunyoqarashini o'zgartirishi mumkin. O'tgan asrning 60–70 yillarida o'zbek adabiyotiga kirib kelgan yangi ruh va yangi to'lqin bilan chin ma'nodagi milliy uyg'onish fasli boshlandi. Milliy ruh, ota makonga sadoqat, millatning eng asosiy ramzlaridan biri bo'lgan muqaddas ona tilining qadr-qimmatini e'zozlash, uni vatan va ona kabi ulug'lash g'oyasi she'riyatning bosh mavzusiga aylanib bordi. Mirtemir, Shukrullo, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Miraziz A'zam, Cho'lpon Ergash Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdieva kabi

otashqalb shoirlarning milliy o'zlik va milliy ruhning ichki mohiyati, g'oyaviy-badiiy qimmatini ifodalangan she'rlari da'vatdek jaranglay boshladi.

Rauf Parfining "Turk ayoli ibodati", "So'zlar", "Xarita", "Abdullajon marsiyasi", "Oybek xotirasiga", "Hijrat", "Jasorat", "Tavfiq Fikrat kitobiga yozuv", "Qadimiy turkulardan", "G'afur G'ulom va Tursunalining varragi", "Usmon Nosir", "Lutfixonim", "Uyg'on, bolam", "Vatan haqida Bernd Iensga maktubim", "Bitiktosh", "Ona Turkiston", "Abdulla Qodiriy g'azaliga muxammas", "Abdurauf Fitrat", "Uyg'onar Turkiston, uyg'onar dunyo...", "Luis Moran", "Oh, Turkiston, ko'zim yo'lingda", "Vetnam haqida qo'shiq", "Viktor Xaraning so'nggi qo'shig'i", "Nozimning sadosi", "Hasratda ona allasi", "Cho'li Iroq", "Ona tilim" kabi she'rlari milliy ruh va milliy o'zlik uchun kurashning eng oldingi saflarida turdi. Tuyg'uni so'zga aylantirish, hissiyotlarni tafakkur tarozusida o'lchash, ruhiyat manzaralarini, ichki kechinmalarni so'zda ifodalash, uning yukini ko'tarish oson emas. Shoir olam va odamning murakkab falsafiy jumboqlarini hissiy-fikriy izlanishlar, ruhiy shodlik va iztiroblar rakursida ko'rdi, ularni yuksak mahorat bilan tasvirladi.

"Jahon falsafasi qomusi"da milliy ruh shunday izohlanadi:

Milliy ruh - millatning ichki ruhiy holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslagi hamda kayfiyatini ifodalovchi tushuncha. Yer yuzidagi har bir millat o'ziga xos irodasi, his-tuyg'u, did, hulq, fe'l-atvordan iborat ma'naviy olamiga ega. Milliy ruh uzoq tarixiy vaqt mobaynida shakllanadigan jarayon bo'lib, u millat taraqqiyotida hayotbaxsh manba bo'lib xizmat qiladi [4; 806].

Milliy ruhiyat tasvirida shoirning inson ichki olamini, orzu va armonlarini, jamiyatda kechayotgan voqea va hodisalarni bor murakkabliklari va og'riqlari talqinida hech qanday ortiqcha bezaksiz, keskin ziddiyatlari bilan birga idrok etishi, tarix bilan qiziqishi, o'tmishni zamon bilan muqoyasa qilish salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Rauf Parfining "Izlar", "Onamga xat", "Siyovush faryodi", "Samarqand osmonida", "Adashgan ruh", "Siniq osmon, bir yulduz mudrar...", "Og'riq", "Daryo kabi doimo uyg'oq...", "O'ltiribman jar yoqasida...", "Munojot" singari she'rlarida tuproq qadri, xalqning milliy qadriyatlari hamda ona tilining

qadim ildizlari millat ruhi va milliy o'zlik bayrog'i sifatida maydonga chiqdi, millat nomusi uchun, ertangi istiqboli uchun kurashga chorladi. Zero, har bir asarning juda uzoq, murakkab yozilish tarixi va bu jarayondan ham og'ir va mashaqqatli taqdir yo'li bor.

Rauf Parfi she'riyati favqulodda go'zal obrazlari, o'zining betakror mazmuni va shakli, ifoda – tasvir usullari hamda uslubi bilan e'tiborni tortadi. Sobiq ittifoq davrida butun jamiyat bosim ostida yashadi. Shunga qaramay, adabiyotimizning oltin xazinasidan munosib o'rin olgan yuzlab asarlar o'sha ziddiyatli zamonda yaratilgan. Hayotdagi burilishlar, jamiyatdagi evrilishlar adabiyotda ham aks etdi. Istibdod davrida ham adolatsizlikka nisbatan muhosasiz kurash ruhida asarlar yozilgan. Yozuvchi Odil Yoqubovning fikricha, "Haqiqat abadiy hodisadir, soxta haqiqat yarataman deganlar juda tez fosh bo'lishadi. Chala-chulpa, u yoqning hammasini qoralab, bu yoqni oqlab yoziladigan tarix kerakmas. Har bir hodisaga har tomonlama, chuqur ilmiy asosda yondashish kerak" [2; 416]. Rauf Parfining qalami haqiqat siyohiga botirib olingan edi. Rauf Parfi o'zining "Shoir" she'rida shunday deydi:

*Kimdir u jafokash shu xilqat aro
Hamnishin tutingan qora qalamga.
Kimdir ul g'amgusor va motamsaro
Fikr sochayotgan turkiy olamga?
Kimdir ul? Ermak deb kuylarmi , nahot,
Soxta ehtiroslar chulg'armi uni?
Yo'q!.. Yo'q yaralmadi u bilgan hayot,
Hali tug'ilmadi shoirning kuni.*

Vatanni sevish uni bilishdan, uning tarixini o'rganishdan, millatni sevishdan, o'z milliy qadriyatlari bilan faxrlanishdan boshlanadi. Har bir inson qalbida milliy o'zlik tuyg'usining uyg'onishi uning o'z millatiga, tiliga, madaniyatiga, an'analari va urf-odatlariga muhabbati va hurmati bilan bog'liq. Mazkur she'r O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovga bag'ishlangan. Muallif jafokash xilqat aro qalam bilan do'st tutinish oson emasligini yaxshi biladi. Osmonini qora bulutlar qoplab

olgan, g'amgusor va motamsaro holida turkiy olamga fikr sochish, dunyo tashvishi, insoniyat taqdiri haqida qayg'urish nihoyatda mushkul edi. Satrlarning poetik mazmuni, ulardagi mantiqiy bog'lanishning kuchliligi kitobxonni befarq qoldirmaydi.

*Hali bo'g'izlarda bo'g'ilar nafas,
Eski yaralardan chak-chak tomar qon.
Shoirni kuylatgan tabiat emas,
Shoirni kuylatgan Hazrati Inson.*

Inson hamisha hurlikka, ozod jamiyatga intiladi. U bo'g'ilib yashashdan charchagan, erkin nafas olishni xohlaydi. Lekin tarix qa'rida qolgan, majburan unutishga mahkum etilgan qismatlar, temir parda bostirilgan haqiqatlarning eski yaralaridan tomayotgan qon unga tinchlik bermaydi. Rauf Parfi hayot ziddiyatlarini, jamiyatdagi adolatsizliklarni badiiy konfliktlarda xolis va keskin aks ettiradi. Jafokash millat shoirining to'laqonli xarakterini yaratadi:

*Tikkandir jonini Vataniga u,
Bu so'z qarshisida titrama, ey jon.
Yuzma-yuz kelgandek go'yo o't va suv,
Yuzma-yuz keladir shoir va zamon.*

Shoir zamon bilan yuzma-yuz kelishdan cho'chimaydi. U barcha davrlar uchun birdek ahamiyatli bo'lgan masalalar xususida bahslashishga hamisha tayyor. Tarixning burilish pallalarida adabiyotga nihoyatda qiyin bo'lgan. Ijod ahli har qancha ta'qiq va qarshiliklarga uchramasin, o'tkir so'zu, haqiqatni aytishdan voz kechmadi. To'g'ri, jamiyatdagi o'zgarishlar, inqirozlarning bari inson hayotida aks etadi va ko'lamiga qarab, turli-tuman iztiroblarni, ruhiy muammolarni, quvonchu tashvishlarni vujudga keltiradi.

Insonning boy va yuksak ruhiy dunyosini, katta maqsad va orzularini, armon va iztiroblarini jonli, ta'sirli yoritish oson emas. R.Parfi zamondoshining voqea va hodisalarga bo'lgan munosabatini, undan olgan hissiyoti, fikr, orzu-umidlarini, qalb kechinmalarini asosan lirik monolog vositasida tasvirlaydi. Bu monolog hayqiriq, isyon yoki munozara, hatto ichki kechinmalar bo'lganida ham u kitobxon

uchun falsafiy mushohadaga aylanadi. Bu she'rlar xalq qalbi va zamona ruhining haqqoniy ifodasidir.

Taniqli nemis adabiyotshunos olimi Ernst Elsterning fikricha, "Haqiqiy uslub shoir uchun o'ta ichki hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishida ikkita unsur muhim ahamiyatga ega: a) idrok etish uslubi; b) ifoda qilish uslubi. Idrok etish uslubi mavzuning muallif xayoliga kelishi, muallifning qayta ishlashi va boyitishida, ifoda uslubi shoirning o'z ichki olamini, tuyg'ularini obrazlar, tashbehlar va shakllar libosiga qanday o'rashida namoyon bo'ladi" [9; 171].

Rauf Parfining dunyoqarashi, ruhiy olami, so'z tanlash va qo'llash mahorati, estetik ideali uning har bir obrazi, har bir tasviriy vositasida, shakliy izlanishlarida ko'zga tashlanadi. Uning badiiy tafakkuri va obrazlar tizimiga tabiatdagi barcha rang singib ketayotganday tuyuladi. Kitobxon ko'z o'ngida borliqdagi har bir narsa inson kabi nafas olayotganga, fikrlayotganga, kulayotganga, dardini aytayotganga, ich-ichidan azob chekayotganga o'xshaydi:

Talpinadi, shunday kuladi,

Ko'm-ko'k o'rmon va tiniq daryo.

Daryo uzra oy ham quladi,

Yer husniga bo'lib mahliyo ("Talpinadi...").

Rauf Parfi tug'ma iste'dodi, ma'naviy qiyofasi, estetik zavqi, ruhi baland, badiiy imkoniyati nihoyatda keng, uni biron chegaraga sig'dirish mumkin emas. Balandparvozlilik va sayozlikdan butunlay xoli bo'lganligi uchun ham uning ijodida so'zning samoviy parvozi juda baland, ko'z ilg'amas darajada yuksak. Shoir odam va olam sirlarini xolis va haqqoniy kashf etadi. Tuyg'u va tafakkur uyg'unligi uning she'riyatining o'q ildizidir.

Shoir qalamida har bir so'z chuqur mushohada uyg'otadi. Poetik iboralar va timsollar, ramz va tashbehlar judayam sirli, ohori to'kilmagan, betakror manzaralar yaratadi. "Seni o'ylab..." deb boshlanuvchi she'r bir o'qishda muhabbat iztirobidek taassurot qoldiradi:

Seni o'ylab jon-holim og'rir,

Seni o'ylab qondir o'ylarim.

*Manzilim ham yiroq va og‘ir,
Tig‘ ustidan borar yo‘llarim.
Telba-otash deb meni pinhon,
O‘ylama sen, mening yulduzim.
Seni o‘ylay oldim-ku, inon,
O‘zimni ham o‘ylarman o‘zim.*

O‘zligini anglagan inson o‘tayotgan kunlar, bosilgan qadamlar haqida mulohaza yurita oladi. Shoirning nazdida, so‘z bilan muloqot, so‘z bilan munosabat o‘tkir tig‘ ustida yurishdan ham xavfli. Manzil yiroq, uning sinovlari og‘ir. Rauf Parfining 1965-yilda yozilgan “Ona tilim” she‘rini o‘qir ekanmiz, til – xalqning milliy o‘zligi, milliy g‘ururi, millatning o‘tmishi, buguni va kelajagi ekanligini yanada chuqurroq his qilamiz.

*Abut-Turk tarixdan balki bihikmat
Biroq sen borsan-ku Turon elinda.
Shoir, So‘z aytmakka sen shoshma faqat,
Ulug‘ Alisherning qutlug‘ tilinda.*

Shoir qalbidagi eng muqaddas his-tuyg‘ular “Ulug‘ Alisherning qutlug‘ tilinda” kitobxon qalbiga ham ko‘chib o‘tadi. Uning “ruhining qonida”, qalbida tug‘yon uyg‘otadi, yolqin bo‘lib yonadi. Til – shoir uchun jon qadar, haqiqat qadar aziz va qadrli:

*Hech zot uza bilmas uzilgan jonni,
Haqiqatni uza bilmas hech qachon.
Elim, ona tilim, ruhimning qoni,
Bir imdod so‘rayman sendan, onajon.*

Rauf Parfi ona tilini “Turkiy Dunyoning g‘olib xayoli”ga, demak, hech qachon yengilmas kuchga qiyoslaydi. Aslida tilning ruhning qoniga, “Abut Turk tarixi”ga, “g‘olib xayol”ga o‘xshatilishi shunchaki chiroyli tashbeh emas. Balki, uning kurashlarda toblangan mardonavorligi, isyonkorligini ta’kidlovchi, zanjirbandlikdan qutulishiga ishongan shoirning qalb qa’ridan otilib chiqqan o‘tlig‘ nidodir:

*Mening ona tilim, munis, mehribon,
Tangrining, Abadning g'olib xayoli –
Seni yozajakman, tirilgan jahon.
Zanjirbandman, ona tilim Ona So'zingga,
Kundayin so'larman, oydek to'larman,
Mil kabi tortarman Seni ko'zingga.*

Bu o'zini ona tili “kunday so'lishga” mahkum, orzulari, umidlari “zanjirband” etilgan shu jafokash elning farzandi deb hisoblaydigan har bir kishining qalb da'vati ekanligini anglatadi.

Shoir qalbida to'liq urayotgan hislar tabiat qalbiga hamohang: sokin va ta'sirli. Professor N.Rahimjonovning fikricha, “R.Parfining aksariyat she'rlarida turli xarakterdagi tafsilot, fikr va hissiyotlar silsilasi estetik jihatdan yaxlit bir obrazga mujassamlashadi. Bunday uzviy bog'liqlikka tashqi formal usullar orqali erishish qiyin, u faqat ijodkorning ona yurti, xalqi va Vatanga bo'lgan ma'naviy-estetik munosabatining yaxlitligi va bo'liqligi bilan belgilanadi. Zotan, she'rda fikrning tiniqligi his-tuyg'ularning ham tiniqligini, yorqinligini ta'minlaydi va aksincha. Shu narsa xarakterliki, shoir hech qaysi she'rda Vatanga, xalqiga bo'lgan mehr- muhabbati, sadoqat tuyg'ularini ko'kragiga urib, balandparvoz ifodalamaydi” [6; 133].

Eng sirli tug'yonlar tabiat bilan uchrashuvdan, tabiat bilan muloqotga kirishishdan boshlanadi. Rauf Parfining vatan haqidagi she'rlari nafaqat umuminsoniy mohiyati bilan, balki ona tilimizning muhtashamligini, ichki jozibasini, musiqiylikni namoyon etuvchi teran falsafiy mazmundorligi bilan ajralib turadi. Shoir jamiyatning ijtimoiy ziddiyatlari va qalb og'riqlari bilan bog'liq poetik kashfiyot yaratadi:

*Vatan deb atalgan beshik onajon,
Men uchun yopilgan eshik onajon,
Men sekin sollanib tinglab borarman.
Vatan deb atalgan tobut qo'ynida,
Chuvalgan bulutni qordek qorarman,*

Ruhimning panjasi chaqmoq bo'ynida.

O'zbekiston qadimda son-sanoqsiz fojialarni boshidan kechirgan. Vatanparvar inson uchun ona tili uning beshik va tobut oralig'idagi shirin va achchiq qismati, milliy o'zligini namoyon etguvchi eng bebaho qadriyatdir. Shoir poetik mushohadasining chuqurligi, tafsiliy tasvirning teranligi shundaki, ona tilida so'zlashish va uning ulug'vorligini yurakdan his qilish insonning o'z qalbini, o'zligini, milliy g'ururini mustahkamlovchi mo'jizaviy qudrat ekanligiga o'quvchini ishontiradi.

She'riyatning ta'sir kuchi uning xalqchilligida, tabiat bilan uyg'unligida. Shoirning fikricha, "Yorug' dunyoga kelgan inson bor ekan, inson bo'lib tug'ilgan ekan – inson haqlari, inson huquqi bordir. Inson huquqi – she'riyat huquqi. Inson va tabiat uyg'unligi abadiy, tabiat tartiboti o'zgarmas, ammo inson tabiati o'zgaruvchandir. Muvozanat buzilgan joyda jaholat fikr olamini zulmatga chulg'aydi, qonga bulg'aydi. Muborak uyg'unlik yo'lida jafo chekkanlarning karvonboshilari shoirlardir, ehtimol..." [6; 221].

Rauf Parfi har bir she'rida poetik evrilishlar asnosida abadiyatga daxldor og'riqli dardlarni ko'taradi. Zero, zamon va jamiyatning, bashariyatning eng katta muammosi – qalb ozodligi, inson erki bilan aloqador masaladir. Jamiyatdagi o'zgarishlar insonning qalbi va ruhiyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Gap bu yerda tafakkurdagi yangilanishlar haqida borayapti. Buyuk donishmand Yusuf Xos Hojib to'g'ri ta'kidlaganidek, "Insondan azizroq narsa bor – bu uning o'zligidir" [7; 147].

Jahon adabiyotida shunday o'lmas, boqiy mavzular, madaniy an'analar borki, ular hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydi, o'rganganing sayin yangi-yangi qirralari ochilib boraveradi. Zero, "Insonning yagona va birdan-bir xaloskori ma'naviyat! Uni oliy qadriyatga aylantiradigan kuch madaniyat va ma'rifat. Yuksaklarga ko'taradigan, qadr-qimmatini oshiradigan, olam mehvariga olib chiqadigan beqiyos Qudrat! Milliy tuyg'u, millatga mansublik hissi insonning hayotda omonat, sun'iy urchitilgan jonzot emas, u buyuk [10; 116] Qalb ozodligi, inson erki va milliy o'zlik tuyg'ularini badiiy -estetik, falsafiy-ma'rifiy tadqiq etish ijodkordan iste'dod, salohiyat bilan bir qatorda hissiy tafakkurni, mukammal

lisoniy-adabiy ilmi ham talab qiladi. Shoir ijodida milliy o'ziga xoslik ko'ngil kechinmalari, jamiyat hodisalarining mushtarak birligida namoyon bo'ladi. Asarda badiiyat kuchli, fikr teran, uslub rang-barang, maqsad yorqin va aniq bo'lsa, yangi avlodlarni ham hayratga solishda davom etadi. Uning ijodiyoti qalb qa'ridagi nomsiz og'riqlarning so'zdagi suratlaridir. Shoir butun umr shu og'riq bilan yashadi. Ular oddiy og'riqlar emas, balki, jabrdiyda millatning, qadim ildizlaridan uzilay-uzilay deb qolgan tilning, Vatanning, Turkistonning og'riqlari, xalqning oriyati, milliy nafsoniyati, iymon faryodlari edi. Bu og'riqlarda uning so'z ishqida, bedorlikda kechgan tunu kunlari muhri qolgan. Qon silqib turgan bu og'riqlarni shoirning so'zlari g'urur bilan ko'tarib o'tadi. Chunki ular erkparast, isyonkor va har lahzada vulqondek otilishi mumkin bo'lgan o'ta mag'rur so'zlar:

So'zlarni ushlab ko'raman, tishlab ko'raman,

Yana tun qo'ynida

Bo'shliqning temir qo'llari ko'ksimni qisarkan:

– Yordam bering, uxlab yotavermang, - deya hayqiraman,

Shunday uyg'otaman qadimiy So'zlarni ("So'zlar")

O'zbekiston Yozuvchilarining 1984-yilgi qurultoyida Rauf Parfi ijodi davrning "ulug'" ishlariga befarqlikda ayblanib, qattiq tanqid qilinadi. Asqad Muxtorning "*She'r – shoirning ijtimoiy vijdoni*" nomli maqolasi barcha g'arazgo'ylarga, noxolis tanqidlarga javob edi.

Uning Vatanga sadoqati bashar dardlariga darddoshligida, yarador so'zga oshiqligida yanada teran namoyon bo'ladi. Vatan og'riqlarini his qilayotib, uning so'zlari isyonga aylanadi, majruh yuraklarni yashinday yoritib, g'aflat pardalarini parchalab o'tadi. Ozodlik va erk nafasi ufurib turgan so'z milliy tug' darajasiga ko'tariladi. Asl shoirlik qismati shundaki, vafotidan keyin ham uning ruhi ming-ming bo'laklarga bo'linib, so'zda o'z abadiyatini topadi. Harflarga jon bitadi, so'zlar tiriladi, milliy ruh, turkiy til, milliy o'zlik uchun kurashga chog'lanadi, mudroq qalblarni uyg'otishda davom etadi:

Men o'tkinchi, men faqat mehmon

Dargohingda, ey turkiy tilim.

Menga bir she'r kerak, ey mezbob,

Yozilmagan she'r erur dilim.

1991-yilning kuzi, mustaqillikning ilk kunlarida O'zbekiston radiosiga bergan intervyusida Rauf Parfi hayajon bilan, "Har kuni uyg'onayotgan quyoshga qarab, uyg'onayotgan yerga qarab, emin-erkin, yuraging to'lib, "Men Vatanimdaman, Vatanimdaman, Vatanimdaman" deb shivirlab tongni qarshilash qanday yaxshi" degan edi.

Tong otmoqda, musaffo tongga,

Yuragini tutar odamlar.

Shu tong uchun kelgan jahonga,

Va shu tong deb o'tar odamlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Rauf Parfi ijodida milliy ruhni falsafiy nuqtai nazardan, keng tarixiy ko'lamda, qalb tug'yonlari va tafakkur uyg'unligida jo'shqinlik bilan idrok etish va tasvirlash ustuvorlik qiladi. Uning noyob, milliy ruhiyatning badiiy yetuk tasvirlari muhrlangan isyonkor asarlari betakror ta'sir kuchiga ega. Ular Vatan va xalq taqdirida, umuman, jahon ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy fikrlari taraqqiyotida ulkan burilishlar yasab, bugunning yoshlari uchun millat va yurt timsoliga aylanmoqda. Rauf Parfining har bir she'rida uning benazir iste'dodi, o'ziga xos mahorati, teran falsafiy-poetik mushohadasi yog'dulanib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Воҳидов Э. Сўз латофати. Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 150 б.
2. Ёқубов О. Ҳақиқатга суяниб. Сўз. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 496 б.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
4. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-ж. – Тошкент: Маънавият, 2023. – 920 б.
5. Парфи, Рауф. Сайланма. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 430 б.
6. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 240 б.
7. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – 198 б.

8. Салимов О. Янги Ўзбекистон давлати. – Тошкент: Маънавият, 2023. – 240 б.
9. Эльстер Э. Психологические концепции литературного стиля. – Москва: Наука, 2015. – 322 с.
10. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 464 б.